

## NUTQ O‘QITUVCHI VA O‘QUVCHI O‘RTASIDAGI BOG‘LOVCHI MULOQOT VOSITASI

*Olimov Temir Xasanovich*

*Osiyo xalqaro universiteti professori, pedagogika fanlari*

*bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

*Axadova Sabina Qo‘shmurod qizi*

*Osiyo Xalqaro Universiteti magistranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o‘quvchilarda nutqni rivojlantirishda muloqotni shakllantirish usul va vositalari ilmiy jihatdan tahlil qilingan.

**Аннотация:** В данной статье научно анализируются методы и средства формирования общения в развитии речи у учащихся.

**Kalit so‘zlar:** o‘quvchi, nutq, muloqot, ta‘lim jarayoni, tarbiya, motivatsiya, bola nutqi, kommunikativ, leksika, dialog, tafakkur.

**Ключевые слова:** ученик, речь, общение, учебный процесс, воспитание, мотивация, речь детей, коммуникативность, словарный запас, общение, мышление

Nutqni rivojlantirish – bu murakkab psixologik jarayon bo‘lib, u faqat bolaning eshitgan nutqiga taqlid qilishidan iborat emas. Bu jarayon bolalarda umuman muloqot faoliyatini rivojlantirish va birinchi navbatda, muloqotga ehtiyoj mavjudligi bilan bog‘liqdir. Bolaning borliqning yangi tomonlariga yo‘naltirilganligi: amaliy faoliyatdan olamni, so‘ngra odamlarni, ularning munosabatlarini o‘rganishga o‘tish yangi maqsadlarga xizmat qiluvchi yangi muloqot vositalari zaruratini keltirib chiqaradi<sup>1</sup>. Bola leksikasini kengaytirish, uning o‘z kechinmalarini yanada keng va xilma-xil ifodalashni o‘zlashtirishi uchun imkoniyat yaratadi. Nutqni zamonaviy va to‘laqonli rivojlantirish uchun atrofdagi odamlar bilan o‘zaro hamkorlik bolaning muloqotga bo‘lgan ehtiyoji tarkibini boyitishi zarur. Bolalarning nutqni egallab olishlarining sababi ularning muloqot faoliyatlarining asosini ehtiyoj-motivatsiya tashkil qilishi, uning tarkibi o‘zgarganligidadir. Verbal bosqichda bolada sust nutq shakllanadi. Ushbu bosqichga bo‘lgan davrning asosiy ahamiyati shundan iboratki, uning ichida navbatdagi bosqich – faol nutq paydo bo‘lishi bosqichiga o‘tish uchun zarur bo‘lgan sharoit vujudga keladi. Bolaning faol nutqni o‘zlashtirishining ikkinchi bosqichida uchta asosiy jihat ajralib chiqadi: emotsional munosabatlar; birgalikda faoliyat (hamkorlik) davomidagi munosabatlar; tovushli munosabatlar. Bolaning kattalar bilan muloqot qilishining ko‘rib chiqilayotgan har bir jihati uning oldiga kattalar tomonidan qo‘yilayotgan va so‘zdan jamiyatda o‘zaro bir-birini tushunish uchun shartli ravishda qabul qilingan vosita sifatida foydalanishni talab qilishdan iborat bo‘lgan kommunikativ vazifani qabul qilishiga yordam beradi. Bundan tashqari, kommunikativ omilning ko‘rib chiqilayotgan har bir jihati u yoki bu darajada va o‘z holicha bolalarning kommunikativ vazifani hal etishlariga, ya‘ni nutqdan foydalanishlariga yordam beradi. Nutqni rivojlantirishning uchinchi bosqichida uning materiyasi (leksika va grammatika) bolaning muloqot vazifasini o‘zgartirgan holda kattalar bilan muloqotga bo‘lgan ehtiyojiga va uning tarkibiga uzviy bog‘liq bo‘ladi. Bu bola nutqining yangi, yanada murakkab va keng qamrovli jihatlarini o‘zlashtirishiga olib keladi. Bolaning ruhan shakllanishida nutqning hal qiluvchi o‘rinni egallashi uning turli bosqichlarda rivojlanishiga yordam beruvchi shart-sharoitlar va omillarning ahamiyatini yanada oshiradi.

Nutq rivojini harakatlantiruvchi kuchlar haqidagi masala ular shiddat bilan va to‘satdan amalga oshirilishi tufayli ham alohida ahamiyat kasb etadi. Bolalar nutqini rivojlantirishni rag‘batlantiruvchi yoki uni sekinlashtiruvchi kuchlarni aniqlash ushbu jarayonda aniq maqsadni

ko'zlagan holda pedagogik sa'yharakatlarni uyushtirish kalitidir. «Haqiqatdan ham, til bilan tafakkur bir-birisiz yashamaydi, - deb yozadi A. M. Borodich - Garchi til bilan tafakkur bir-birisiz yashay olmasa ham ular o'zida aynan bir hodisani ifodalamaydi. Tafakkur- obyektiv borliqning intihosi, til esa- fikrni boshqa kishilarga yetqazish va mustahkamlash vositasi. So'z bilan tushuncha dialogik tarzda bir-birini taqozo etadi». Ma'lumki, maktabgacha katta yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish faoliyatning har xil turlarida amalga oshiriladi: tabiat obyektlari bilan tanishtirish mashg'ulotlarida; savod o'rgatishda; o'yin faoliyatida; ijtimoiy foydali mehnat jarayonida turli ishlarning bajarilishida. Biroq A.M.Borodich, F.A.Soxin, YE. I. Tixeyeva, O.S. Ushakova, A.P.Usova, A.P.Fedorenko va boshqa tadqiqotchilar ko'rsatib o'tganlaridek, nutqni rivojlantirish mahsus rejalashtirilgan va tashqil etilgan mashg'ulotlarda amalga oshirilishi har jihatdan maqsadi mazmuni va o'tqazilish muddatini hisobga olgan holla rejalashtirish; bolalarning analitik-sintetik xaraktfaoliyatlarini aniq belgilash, predmetlar o'rtasida aloqalar o'rnatish,

**Xulosa:** pedagogik nutqni rivojlantirishning metodik tamoyillari quyidagilardir: (aqliy va nutqiy rivojlanishning o'zaro bog'liqligi tamoyili; ( nutqni yaxlit bir tuzilma sifatida rivojlantirish tamoyili; ( nutqiy rivojlanishning individual xususiyatlarini hisobga olish tamoyili; ( nutqiy amaliyotini ta'minlash tamoyili; ( nutqni rivojlantirishga nisbatan muomalali va amaliy yondashuv tamoyili nutqini rivojlantirish – bu murakkab psixologik jarayon bo'lib, u faqat bola eshitgan nutqqa taqlid qilishidan iborat emas, balki bu bolada muloqot faoliyatini rivojlantirish va muloqotga ehtiyoj mavjudligi bilan bog'liqdir.

#### FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Olimov, T. H. (2019). SPIRITUAL AND MORAL ASPECTS OF THE FORMATION OF CIVIL CULTURE IN FUTURE SPECIALISTS OF HIGHER EDUCATION. *Theoretical & Applied Science*, (12), 662-665.
2. Olimov, T. H. (2020). The image of a modern teacher in the formation of civic culture among future highly educated specialists. *Pedagogical skill-Bukhara*, 5.
3. Olimov, T. H. (2019). Development issues of civil society and culture in the work of Eastern thinkers. *Pedagogical skill-Bukhara*, 2.
4. Olimov, T. H. (2016). Formation of self-awareness in youth. *Social and humanitarian sciences in the educational system.-Tashkent*, 4.
5. Olimov, T. (2020). BO'LAJAK OLIY MA'LUMOTLI MUTAXASISLARDA FUQAROLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING AYRIM YO'NALISHLARI. *FAN, TA'LIM VA AMALIYOTNING INTEGRASIYASI*, 1(1), 20-27.
6. Xolboyeva, G., & Olimov, T. (2023). O 'SMIRLAR MA'NAVIYATINI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. *Ilm-fan va ta'lim*, 1(7).
7. Xolboyeva, G., & Olimov, T. (2023). O 'SMIRLARDA STRESSLI VAZIYATLARDA KOPING XULQ-ATVOR STRATEGIYALARI NAMOYON BO 'LISHINING IJTIMOY PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. *Ilm-fan va ta'lim*, 1(7).
8. Olimov, T. THE ROLE OF NATIONAL SPIRITUALITY AND VALUES IN THE DEVELOPMENT OF CIVIL CULTURE IN FUTURE SPECIALISTS WITH HIGHER EDUCATION.